
ULUG‘BEK HAMDAM IJODIDA RAMZIYLIK

(“Na’matak” asari misolida)

Abdullaxon Sulaymonov

GulDU filologiya yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ulug‘bek Hamdamning “Na’matak” asarida ramziy obrazlar, falsafiy g‘oyalar hamda inson va tabiat munosabatining badiiy talqini tahlil qilinadi. Asarda na’matak timsolining mazmuniy-funksional xususiyatlari, uning mehr-oqibat, insoniylik, ma’naviy poklik, nafs va chegara kabi tushunchalarni ifodalovchi ko‘p qatlamli ramz sifatida qo‘llanishi ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotda asarning kompozitsion tuzilishi, uch avlod qismati, naqoratning badiiy vazifasi hamda ramziy detallar orqali insonning tabiat, jamiyat va o‘z vijdoni bilan munosabati ochib beriladi. Shuningdek, yozuvchining badiiy tafakkuri, falsafiy mushohadalari va milliy qadriyatlarni ifodalashdagi o‘ziga xos uslubi tahlil qilinadi. Xulosa sifatida “Na’matak” asari zamonaviy o‘zbek nasrida ramziylik va falsafiy-estetik tafakkurni yuksak badiiy saviyada mujassam etgan, inson va tabiat uyg‘unligini ulug‘lovchi muhim badiiy asar ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar:Ulug‘bek Hamdam, “Na’matak”, ramziy obraz, na’matak timsoli, falsafiy talqin, badiiy ramziylik, inson va tabiat, mehr-oqibat, zamonaviy o‘zbek nasri, kompozitsiya.

O‘zining nomi dunyoda ovoza bo‘lishida uning tili, turmush tarzi, hamjihatligi, yutuqlari, siyosati, milliy qadriyatlariga munosabati, boy tarixi va albatta, og‘zaki va yozma adabiyot namunalari asos bo‘lishini istamagan xalq bo‘lmasa kerak. Jahoniy miqyosda fikrlaydigan, zamonaviy yozuvchi Ulug‘bek Hamdam ijodi ham tom ma’noda o‘zining alohida jihatlari bilan o‘z kitobxonlari qalbidan, kitoblari esa uy to‘ridagi javonidan joy olib ulgurgan. Ayniqsa, yozuvchining ijodiga nazar solsak, o‘zining alohida dunyo ichra dunyosi bor ekanini, so‘z qo‘llash mahoratiga tan bermay ilojingiz yo‘qligiga amin bo‘lasiz. Eng katta yutug‘i ham shu so‘zlarni aynan xalqimiz hayotidan olganligida, ayniqsa, peyzaj tasvirini qo‘llanilishida ham yozuvchi o‘z o‘zaniga ega ekanligini sezish mumkin. E’tiborli kitobxon adibning barcha asarlarida,

qahramonlar ruhiyatini ochib berishda ham millatimiz, xalq vakillari obrazlari tasvirida, hatto ularning ismlari ham barchasi sof turkiycha ekanligiga guvoh bo'lasiz. Bu esa milliy qadriyatlarga sodiqlik namunasi sifatida ko'z oldingizda yaqqol gavdalanadi. Yana bir o'rin borki, har qaysi yozuvchi, shoir yaratayotgan asarida o'z siymosini, ichki dunyosini, hayotida ko'rgan va bilgan insonlar portretini qisman gavdalandiradi. Ulug'bek Hamdam ijod yo'lida ham hayot yo'li birlamchi qadam, shamchiroq bo'lib xizmat qiladi. Adib ijodida yana bir payqalgan jihat shuki, ko'pgina asarlarida avlodlar (uch avlod) uchrashuvini ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda, Ulug'bek Hamdam nasr va nazmda ham mayda detallargacha ahamiyat berishi, diqqat markazidan chetda qoldirmaslikka, aksincha ularni jonlantira bilishi bilan bir zum bo'lsada diqqat markazidan uzoqlashmaydi. Ijodkorning o'zbek adabiotida ko'plab muhokamalariga sabab bo'layotgan va qo'ldan – qo'lga o'tib kelayotgan “Na'matak” mini – romanini tahlilga tortsak [1.415-422]. “Na'matak” asariga munosabat bildirgan filologiya fanlari doktori Sh.Turdimov fikricha: *“Yozuvchi asarda na'matakni butadan Ismga aylantira olgan voqea, kechinmalarni hikmatga payvand etgan...Yozuvchi asar nomiga berkitgan sir voqealar bayonida ochilgan...asar ulkan epik qamrovli voqelikni qisqa hajmga jamlagan... ‘Na'matak’ – majoziy asar”* [2.413-414]. Shu o'rinda yana bir masalaga to'xtalib o'tsak, ya'ni “Na'matak” hikoyami, yoki (mini)roman bahsidan o'zimizni yiroqlashtirsak-da, boisi bizga uning ichidagi mohiyat(mazmun) muhimroqligini oldinga chiqarsak. Sirti(shakl)ni esa har qaysi kitobxon o'zlari uchun xulosa chiqaraversinlar. Kim uchundir hikoya bo'laversin, yana kim uchundir (mini)roman. Biz esa umumiyashtiramiz. Yozuvchilar, san'at sohasi vakillari keng ommaga va o'zlari uchun tor doirada yaratgan har qanday ijod mahsullari borki, umumiyashtirib san'at asari, badiiy asar, nasriy, epik, dramatik asar deya ta'rif beriladi. Biz ham “Na'matak” ka sirtqi tomondan asar deb murojaat etganimiz eng maq'bul yo'l nazarimizda. Qo'shiqning markaziy qismi tinglaguvchiga hushtortar bo'lib yetib borishida ijro, ovoz, she'r, ruhiyat va she'rdagi kulminatsion nuqta – naqorat juda muhim sanaladi. She'riyatda esa bu nuqta misradan misraga yuklanayotgan vazifa ortib borishi yoki, muammo birinchi baytga yuklanib, yechim esa qolgan misralarda asta sekin topiladi. G'azallarda esa shohbayt deya ataladi yuqorida ta'rif etganlarimiz. Ulug'bek Hamdam ham “Na'matak” asariga

“shohbayt” qilib naqorat qismini tanlagan. Naqorat qismi asar mohiyatini ochib berishda, uning davomiyligi, uzviyligini ta’minlashda katta vazifa bajaradi. Naqorat qism asar davomida to’rt bor qo’llaniladi. Har qaysi o’rinda qo’llanganda o’zgacha ma’no yuzaga keladi. Asar umumiy uch qismdan iboratligi va har qaysi qism alohida xulosa taqdim etishi, har qaysi qismda o’zidan oldingi va keyingi qism uchun ma’lum bir tayanch detallar kiritilgani bilan ahamiyatli.

*Qanday ko‘zla boqsa, odam olamga,
Shunday javob aylar olam odamga,
Degan ekan donishlar...*

Bu asarning birinchi qismidagi dastlabki naqorat va so‘zboshi hisoblanadi. Savol paydo bo‘ladiki, kim aytgan aynan? – Donishlar. Birinchi qismda uch jihat ko‘zga tashlanadi.

1. Odamning odamga boqishi;
2. Odamning olamga boqishi;
3. Olamning odamga boqishi.

Birinchi jihat izohi shuki, ikki qo‘shnining o‘rtalaridagi odamiylik, insoniylik ziynatining ufirib turishi. Qalbi pok insonning ishida unum, hayotida fayz, oilasidan baraka yog‘ilib turadi. Ikki qo‘shnida ham bu sifatar yetarlicha topiladi. Ikkinchi jihat izohi esa yigit va qiz ilk uchrashuv nuqtasi kelgusi hayotlariga tarix bo‘lgan voqeadan boshlanadi. Ilk uchrashuv ham baxtli yakun, ham, na’matak bilan uyg‘un tarzda kechadi. Uchinchi qismda odamlar, ya’ni ikki qo‘shniga Allohning bir in’omi bo‘lmish na’matakka munosabati bir-birlariga bo‘lgan munosabatlariga javoban tabiat ham ularni siylaganining guvohi bo‘lasiz. Shu yil mo‘l hosil qilishi, ikki qo‘shni tomonda ham teng meva berishini kuzatasiz. Vaholanki, na’matakning ko‘p shoxlari qiz hovlisi tomonda bo‘lganiga qaramay. Uning gul ifori sabab yigit va qiz uchrashuvi yuzaga kelishi ham bejiz emas-da! Tabiatning mo‘jizaviy in’omi sabab, na’matakning iforidan-da muattarroq ifor qizning sochlariga hadya etilganligi, mushk anbar ham aynan tabiatning bir mahsuli ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Birinchi qismda yana bir jihat borki, uch yilni o‘z ichiga olganligi. Birinchi yildagi na’matak mevalari insonlarning insonlarga va tabiatga munosabati befarqroq ekanini ko‘rsatsa, ikkinchi yildagi mo‘l hosil to‘laqonli birinchi yilning aks tomonini ko‘rsatadi. Ikki qo‘shni

o'rtasidagi o'zaro oqibatdan tabiat ham bebahra qolmaydi. Uchinchi yil bahorida esa na'matak kurtaklab gullaganidek, ikki oila farzandlari taqdiri ham oppoq na'matak gullari misoli birlashadi. O'z-o'zidan ko'rinadiki, na'matak birinchi qismda bizning aql -u ojizimizcha, mehr – oqibat ramzi sanaladi. Keyingi ikkinchi qism (avlod) qismati ham xulosa, ham naqorat, ham izchil va bosqichma-bosqich o'zgarib borib, birinchisidan tubdan farq qiladi. Na'matak ham o'zida boshqa bir jihatni ko'ylak qiladiki, biz bu ramziylikni maqolamiz so'nggida umumiyashtirishga harakat qilamiz. Asarni o'qishga chog'langan o'qirmanda ham dastlab avvalgi avlod va ularning baxtiyor kunlari ko'z oldinizga keladi. Aslida ham shunday... Faqatgina yuqoridagi qiz va yigitning ota-onasi omonatini Yaratganga topshirgunicha... Yigit va qiz yoshini yashab oshini oshaguncha, o'z ahlilariga qanday mehrda, munosabatda bo'lsalar Na'matakka ham shunday qaradilar, parvarish qildilar. Yurtimizda mustaqillikning ilk yili 1991-yilda “Qur’oni Karim”ning o'zbekcha izohli tarjimasi yaratildi [3]. Bizning rejalarimizda o'lim bo'lmagani bilan, o'limning rejalarida biz, albatta, bor bo'lganimizdek, alal-oqibat *‘har bir jon o'limni totguvchidir. Qiyomat kuni ajrlaringizni to'lig'icha olursiz. Kim olovdan uzoqlashtirilsa va jannatga kiritilsa, shubhasiz, yutuqqa erishibdi. Dunyo hayoti esa aldov matohidan boshqa narsa emas’* [3;3:185-oyat]. Yigit va qiz ham bu dunyoni o'tarkanlar dalahovliga kelgan avlod asarni butunlay mazmun va mohiyatining o'zgarishiga sabab bo'ladi. O'rtada oqibat yo'qoladi. Mehr bulog'i chashmalari yopildi. Ishonch devorlari buzulib, o'rnida hovlilarni taqsimlash uchun chegara – devor tortildi. Har qaysi tomon devor tortmasin, o'rtada na'matak sarson... Ikki qo'shni ko'zlarini boylik to'sib qo'ydi. Endi rosmang boshlandi. Bir-birlarini shunchalar yomon ko'rishlariga esa mana shu Na'matak sabab bo'ldi.

Asarning ikkinchi qismda bor e'tibor aynan mana shu Na'matak atrofida sodir bo'ladi. Nafs iskanjasiga tushganlar uni chopib tashladi. Bu odamning olamga munosabati edi. Buning bilan inson o'z yovuz niyatni amalga oshirishga tuynuk hosil qildi. Endi esa odamning odamga munosabatini va odamning olamga munosabatini ham salbiy tomonga o'zgardi. Begunoh daraxtga tortilgan bolta, gunohkor bo'yinni ham ayab o'tirmadi. Hech qancha vaqt o'tmay ikkinchi qo'shni ham qamoqda vafot etganini kuzatasiz. Insonning tabiatga bo'lgan yaxshiy munosabati tabiatning ham

qahriga sabab bo'lishi bilan asar fojeali yakun topadi. Shu uchun bu qism naqorat bilan boshlanmay, aksincha, naqorat bilan yakun topadi.

Qanday ko'zla boqsa, odam olamga,

Shunday javob aylar olam odamga, Degan ekan...

Agar diqqat qilgan kitobxon birinchi qismda “donishlar” degan jumla borligini eslaydi. Ammo, bu qismda yuqoridagi jumlaning topolmaysiz, umuman qo'llanilmaydi. Bunday hikmatlarni to'g'ri anglagan Sh.Turdimov: *“Huddi xalq qo'shiqlaridagidek bir hikmat naqorat bo'lib, uch qismni birlashtirib – bog'lab turibdi. Yozuvchi hikmatga badiiy maqsadni ochuvchi kalit vazifasini yuklagan. Hikmatlarni ifoda shaklida voqelik tasviri va mazmuniga uyg'un, tadrijiy ko'rinish olganligi bejiz emas”*, – deb yozadi [2;414]. Aynan shu jumla ham asarning ko'p qirralarini ochib berishiga xizmat qiladi. Voqea juda uzoq zamonda emas, balki, yaqin o'tmishni qamrab olganligini tasdiq etadi. Iymoni salomat, nafs va sabrini o'z izmiga solgan mo'min birodarlar uchun bir o'rnak sifatida ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Na'matak ham bu qismda aytib o'tganimizdek, o'zgacha ramz hosil qilib, ya'ni insoniylik chegarasi, umumiy tushunish uchun chegara ma'nosini anglatadi. Bu chegarani buzish unchalar qiyin emasligi, uning oqibatida ikki qo'shniga ziddiyatlar olib kelishiga amin bo'lasiz. Bora-bora keladigan balolar - johilliklar ham shu voqeadan keyin amalga oshgani bejiz emas. Chegara deyishimizga sabab esa nafs va ochko'zlik chegarasini anglatadi.

Qanday ko'zla boqsa, odam olamga,

Shunday javob aylar olam odamga, degan...

Ikkinchi bo'lim naqorat bilan boshlanib, naqorat bilan tugaganiga yana o'qirmanlar diqqat qaratgandir... Birinchi naqoratda “degan ekan” qismi ota- bobolari tilidan aytilgan hikmat tarziini anglatga, so'nggidagi “degan” deb tugashi tabiat tilidan aytilganini anglatadi.

Uchinchi avlod voqealari ikkinchi avlod qismatidan darak berish bilan boshlanadi. *“Adib uchinchi avlod taqdirini atigi uch kunlik vaqt birligiga sig'dirar ekan, bu bilan inson umrining g'oyatda qisqa (“dunyo uch kunlik”), ekaniga urg'u bergan”* [4]. Bu qism yuqoridagi avlod vakillari hayot tarzi, tabiatga bo'lgan munosabati va voqealar rivoji bilan keskin farq qiladi. Bu qism uch kunni o'z ichiga oladi. *“Qushlar chug'ur- chug'ur qo'shiq aytadi, arilar g'o'ng'illaydi, shabboda ham*

yana o‘z tilida odamlar kechmishidan shivirlab nimalarnidir zamzama qiladi” [1;420]. Zam-zam arab tilida “to‘xta-to‘xta” ma’nosini ifodalaydi. Bu esa ikkinchi avlod vakillariga qaratilgan bir ogohlik qo‘ng‘irog‘i edi, ular buni tushunib yetmaganliklari sabab umrlari nes-nobud bo‘ldi. Birinchi kunda yana ko‘klam tasviri beriladi. Biroq na’மாகনি taratgan iforidan mast bo‘lgan yigit va qiz bu butaning nomini bilmaydilar. Adib bu qismda uchinchi avlod sifatida har qaysi o‘qirman o‘zini-o‘zi tushunishini ta’kidlagandek go‘yo. Har qaysi o‘qirman o‘zi istagandek nomlashga haqli. Yozuvchi ham aynan uchinchi avlod vakillari butaga nom bermaganligi sababi fojeali avlod taqdirini asar qahramonlari tilidan eslashi orqali oshkor etadi. Ikkinchi kunni yigit ham, qiz ham tunni bedor o‘tkazgan ko‘yi qarshi oladi. Yigitning sabri va qizning ko‘z yoshlari na’மாகka qayta mehr qaratilayotgandek tuyiladi. Chunki, birinchi kun fojeali qismatni qarshi olgan avlod vakillari xususida o‘yga tolgan bo‘lsalar, bu kunda yaxshi xotiralarni esga olganlarini payqash qiyin emas. Uchinchi kunda esa hali ham bir qarorga kelishmagani, butaga nom berishmaganini kuzatasiz.

Asar yana naqorat bilan xotimalanadi. Xotima esa hech kimning tilidan bayon qilinmagan. Butaga ham nom berilmagan. Adib har kim ayni holatidan kelib chiqib xulosa chiqarishi va nomlashi mumkin ekanligini, o‘z xulosasi, o‘zicha fikrlash vazifasini kitobxonga yuklaydi. *“Kim biladi deysiz , ular balki bobolarini eslashayotgandir, balki otalarini, balki yodlarida tamomila o‘zga o‘y bordir...”* [1;420].

Qanday ko‘zla boqsa, odam olamga,

Shunday javob aylar olam odamga.

Ko‘rinadiki, xohlasangiz mehr-oqibat yo‘lini, isatasangiz ziddiyatni insoniylik chegarasi sifatida va xohlasangiz butunlay o‘zgacha yo‘lni tanlashingiz mumkin. Asarda yana tinish belgilarining qo‘llanilishi ham asar ta’sirchanligini oshishib, uning zalvoriga xizmat qilgan. Ayniqsa, so‘roq va undovning (!?) undov va so‘roqqa aylanishi (!?) mulohaza va muhokama qilishimizga sabab bo‘lsa, naqarot va boshqa o‘rinlarda kelgan uch nuqta (...) chuqur va mo’jiziylik ko‘lami g‘oyat kengligiga e’tiborimizni tortmay qolmaydi. Bu jiharlarning barchasi yig‘ilib, kitobxonni mulohazakorlikka va fikrlashga chorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hamdam U. Vatan haqida qo'shiq. –Toshkent: Akademnashr, 2014.
2. Turdimov Sh. So'zboshi/Ulug'bek Hamdam. Vatan haqida qo'shiq. – Toshkent: Akademnashr, 2014. –B. 413-414.
3. Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima.Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. –Toshkent: Cho'lpon, 1992.
4. Yakubov I. Mini-roman yaratish yo'sinidagi eksperimental izlanishlar // "Worl of Philology" Scientific Journal. –Qo'qon: 2022. –B.5-10.
5. Ботирова, Ш. И. (2021). МОДЕРН ВА МОДЕРНИЗМ ҲАҚИДА МУЛОҲАЗАЛАР. Academic research in educational sciences, 2(3), 509-520.
6. ANARBEKOVA, A. (2024). RAQAMLI TA'LIMDA XORIJIY TILNI O'QITISHDA ELEKTRON TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH. "ACTA NUUZ", 1(1.9. 1), 74-78.
7. Anarbekova, A. (2024). BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(07), 17-24.
8. Anarbekova, A. (2024). IMPROVING THE PSYCHOLOGICAL FACTORS AND METHODS OF TEACHING YOUNG PEOPLE NON-STANDARD THINKING. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(02), 62-69.
9. AzizaSherboboevna, K. (2021). Linguistic Characteristics Of Advertising Discourse: Creolized And Non-Creolized Advertising Texts. Int. J. of Aquatic Science, 12(3), 2944-2951.
10. Sherboboyevna, X. A. (2025). TIL, REKLAMA VA GENDER: IJTIMOIIY-MADANIY IDENTIFIKATSIYANING AKS ETTIRILISHI. Journal of Modern Educational Achievements, 5(5), 133-142.
11. Sherboboyevna, X. A. (2025). REKLAMA DISKURSINI QIYOSIY-LINGVISTIK TAHLIL QILISHNING KONSEPTUAL MODELI. KONFERENSIYA, 1(2), 1015-1021.
12. Холбобоева, А. Ш. (2024). РЕКЛАМА ДИСКУРСИНИНГ ТУРИСТИК САЛОҲИЯТНИ ОШИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ. Science and innovation, 3(Special Issue 46), 632-634.